V.I. ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

V.I. ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI

BOLTAYEV ASLIDDIN ASKAR O‘G‘LI

BIRINCHI TARTIBLI XOTIRALI ELASTIKLIK TENGLAMALAR SISTEMASI UCHUN TESKARI MASALALAR

01.01.02 –Differensial tenglamalar va matematik fizika

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI
bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2024

UDK: 517.958

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on physical-mathematical sciences

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам

V.I. ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

V.I. ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI

BOLTAYEV ASLIDDIN ASKAR O‘G‘LI

BIRINCHI TARTIBLI XOTIRALI ELASTIKLIK TENGLAMALAR SISTEMASI UCHUN TESKARI MASALALAR

01.01.02 –Differensial tenglamalar va matematik fizika

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI
bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2024

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, Fan va Innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida № B2023.4PhD/FM946 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika instituti va RFA Vladikavkaz ilmiy markazida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus(rezyume)) Ilmiy kengash veb sahifasi (http://kengash.mathinst.uz) va “ZiyoNet” ta’lim axborot tarmog‘iga http://www.ziyonet.uz/ joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Durdiyev Durdimurod Qalandarovich** fizika-matematika fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Ashurov Ravshan Radjabovich** fizika-matematika fanlari doktori, professor
	Ergashev Tuxtasin Gulamjanovich fizika-matematika fanlari doktori, dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Urganch davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika instituti huzuridagi DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil “28” may soat 16:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 9-uy. Tel.: (+99871) 207-91-40, e-mail: uzbmath@umail.uz, Website: www.mathinst.uz).

Dissertatsiya bilan V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (183-raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 9-uy. Tel.: (+99871) 207-91-40.

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil “14” may kuni tarqatildi.
(2024 yil “14 ” maydagi 2-raqamli reestr bayonnomasi).

O‘.A. Roziqov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, akademik

J.K. Adashev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, fizika-matematika fanlari doktori, katta ilmiy xodim

A.A. Azamov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash huzuridagi Ilmiy seminar raisi, akademik

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosida olib borilayotgan aksariyat ilmiy-amaliy tadqiqotlar ko‘p hollarda matematik fizikaning to‘g‘ri va teskari masalalarini o‘rganishga olib kelinadi. Teskari masalalar astronomiya, kvantlarning tarqalish nazariyasi, geofizika, issiqlik fizikasi, tibbiyotga hamda EHM paydo bo‘lishi bilan zamonaviy ilm-fanning barcha sohalariga kirib bordi. Qovushqoq-elastik muhitda elastik to‘lqinlarning tarqalish jarayonini matematik usullardan foydalangan holda aniqroq o‘rganishda jarayonning xotirasini hisobga olish talab qilinadi. Matematik nuqtai nazardan, hodisaning “o‘tmishini” hisobga olish, qaralayotgan elastiklik nazariyasining matematik modelida xotiraga javob beruvchi yadroga ega bo‘lgan o‘rama ko‘rinishdagi integral operatorini kiritish zarurligiga olib keladi. To‘g‘ri masala yechimi haqida qo‘shimcha ma’lumotlarga asoslanib, to‘g‘ri masala yechimini va integro-differensial tenglama yadrosini aniqlashga doir tadqiqotlar olib borish matematik fizikaning muhim vazifalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Hozirgi kunda jahon miqyosida matematik fizikaning eng tez rivojlanayotgan sohasi – teskari masalalarni tadqiq qilish usullariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu soha fizika va texnika fanlaridagi eng muhim matematik muammolardan biriga aylandi. Qovushqoq-elastiklik differensial tenglamalar sistemalari seysmik qidiruvda, seysmik to‘lqinlar yordamida muhitning xususiyatlarini o‘rganishda paydo bo‘ladi. To‘lqin maydoni haqidagi ma’lumotlardan foydalanib integral operator yadrosini aniqlash teskari masalasi geologik muhitning tuzilishi va xossalarini o‘rganishda muhim o‘rin tutadi. Shunday qilib, qovushqoq-elastik muhitda integro-differensial tenglamalar uchun qo‘yilgan to‘g‘ri va teskari masalalarning korrektligini o‘rganish zarurati paydo bo‘ldi. Qovushqoq-elastik muhitlarda to‘lqin tarqalish jarayonlari nazariyasining teskari masalalarini yechish usullarini ishlab chiqish zarurati dissertatsiya ishi mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Mamlakatimizda fundamental fanlarning ilmiy va amaliy tatbiqiga ega bo‘lgan integro-differensial tenglamalar va matematik fizikaning dolzarb yo‘nalishlariga e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, so‘nggi yillarda, elastik to‘lqinlarning xotirali muhitlarda tarqalishi jarayonlarini ifodalovchi integro-differensial tenglamalari uchun boshlang‘ich-chegaraviy masalalarni tadqiq etish, ular uchun teskari masalalarni yechish orqali amaliy muammolarni hal etishga alohida e’tibor qaratildi. Elastik to‘lqinlarning xotirali muhitlardagi integro-differensial tenglamalari uchun teskari masalalar yechimining mavjudligini, yagonaligini isbotlashga va muhitning xotira funksiyasini aniqlashga oid salmoqli natijalarga erishildi. Differensial tenglamalar, matematik fizika va funksional analiz fanlarining ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha xalqaro standartlar darajasida ilmiy tadqiqotlar olib borish matematika fanining asosiy vazifalari va faoliyat yo‘nalishlari qilib belgilandi[1]. Bu borada matematik fizikaning integro-differensial

[1] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 18-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining yangi tashkil etilayotgan ilmiy-tadqiqot muassasalari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 292-son qarori va tuzilmaviy masalalar

tenglamalari uchun teskari masalalar nazariyasini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevral PF-4947-sonli «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi, 2022-yil 28-yanvar PF-60-sonli «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi farmonlari, 2017-yil 17-fevral PQ-2789-sonli «Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi, 2017-yil 20-aprel PQ-2909-sonli «Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi, 2018-yil 27-aprel PQ-3682-sonli «Innovatsion g‘oyalar, texnologiyalar va loyihalarni amaliyotga joriy qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi, 2020-yil 7-may PQ-4708-sonli «Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorlari, hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV «Matematika, mexanika va informatika» ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Teskari masalalar bo‘yicha dastlabki nashrlar fizika, geofizika, astronomiya va boshqa fanlar bilan bog‘liq. Qidiruv geofizikasining matematik-fizik muammolari teskari masalalar nazariyasining muhim yo‘nalishidir. Bu yo‘nalishda A.S. Alekseyev va S.V. Goldinning nashrlarini eslatib o‘tish mumkin. Xususan, A.S. Alekseyev birinchilardan bo‘lib yarim fazoda izotrop elastiklik tenglamalar sistemasi uchun zichlikni aniqlashning bir o‘lchamli teskari masalasini o‘rgandi. Ushbu yo‘nalishni M.M. Lavrentyev, V.G. Romanov, A.S. Blagoveshchensky, S.P. Belinsky, V.G. Yaxno va boshqalar rivojlantirib, giperbolik tipdagi tenglamalar uchun turli xil teskari masalalarni o‘rganish usullarini ishlab chiqdilar.

Giperbolik tipdagi integro-differensial tenglamalardan integral operatorning yadrosini aniqlash masalalari teskari masalalar nazariyasida yosh, tez sur’atlarda rivojlanayotgan yo‘nalish bo‘lib, bu yo‘nalishda dastlabki olingan ilmiy natijalar M. Grasselli, V.G. Romanov, A. Lorenzi, Ye. Paparoni, D.Q. Durdiyev kabi olimlarning nomlari bilan bog‘liq bo‘lgan bo‘lsa, keyinchalik A.L. Buxgeym, D.Q. Durdiyev, V.G. Yaxnolarning ishlarida giperbolik tenglamalar uchun xotira funksiyasini aniqlash teskari masalalari ham tadqiq etildi. A.L. Buxgeym, V.G. Romanov, D.Q. Durdiyev, J.Sh. Safarov, Y. Yannolarning ishlarida faqat vaqt o‘zgaruvchisiga bog‘liq bo‘lgan yadroni aniqlash masalalari ko‘rib chiqilgan bo‘lib, masala noma’lum funksiyalarga nisbatan Volterra tipidagi integral tenglamalarni yechishga keltirilgan va yechimning mavjudlik, yagonalik teoremalari, yechimning berilgan funksiyalarga uzluksiz bog‘liqlik baholari olingan.

Giperbolik tenglamalar sistemasi uchun teskari masalalar nazariyasi L.P. Nijnik, S.P. Belinsky, V.G. Romanov, T.P. Puxnachova, D.Q. Durdiyev, J.D. Totiyeva va boshqalar tomonidan keng tadqiq qilingan. V.G. Romanov[2] $u = (u_1, u_2, \dots, u_m)$, $m \geq 2$ vektor funksiya uchun

$$u_t + \sum_{j=1}^{n} A_j u_{x_j} + Bu_z + Du = F \qquad (1)$$

tenglamalar sistemasini $\Omega = \{(x, z, t): x \in \mathbb{R}^n, 0 < z < H < \infty, t > 0\}$ sohada qaragan. $(A_j, B, D)(z) - m \times m$ o‘lchamli matritsalar, $F = (F_1, \dots, F_m)(x, z, t)$, $x = (x_1, \dots, x_n)$. (1) tenglamalar sistemasi t- giperbolik, $F(x, z, t) = \Phi(t) f(x, z)$ deb faraz qilinib, Ω soha chegarasida berilgan shartlar asosida $\Phi(t)$ ma’lum bo‘lganda $f(x, z)$ funksiyani topish masalasi o‘rganilgan. S.P. Belinsky va V.G. Romanovlar[3] (1) tenglamalar sistemasi yechimi Ω sohaning chegarasida ma’lum bo‘lganda $(A_j, B, D)(z)$ matritsalarni aniqlash masalasini tadqiq qilgan. Qovushqoq-elastiklik integro-differensial tenglamalar sistemasidan o‘rama ko‘rinishidagi yadrolarni aniqlash teskari masalasini D.Q. Durdiyev, J.D. Totiyeva va boshqalarning ishlarida uchratishimiz mumkin. Bu ishlarda lokal mavjudlik, global yagonalik teoremalari va turg‘unlik baholari olingan. D.Q. Durdiyev va H.H. Turdiyevning ishlarida esa, Maksvell integro-differensial tenglamalari sistemasidan diagonal relaksatsiya matritsasini aniqlash teskari masalasi o‘rganilgan. Ushbu ishlarda yechimning global mavjudlik va yagonalik teoremalari olingan.

Ushbu dissertatsiya ishida

$$F = F(x, z, t; u) = \int_0^t R(t - \tau) u(x, z, \tau) d\tau + f(x, z, t) \qquad (2)$$

bo‘lib, (1) tenglama yechimi Ω soha chegarasida berilganda $R(t)$ matritsani topish masalasi o‘rganilgan. (1) tenglamaning fizik modeli sifatida qovushqoq-elastiklik nazariyasining kuchlanishlar tenzori va deformatsiyalar orasidagi Bolsano-Volterra integral munosabatlari qabul qilingan. Izotropik, anizotropik muhitlar qaralib, muhitning qovushqoqligini ifodalovchi $R(t)$ yadro matritsasining turli hollari uchun har xil masalalar tadqiq qilingan. Masalalar yechimining mavjudligi va yagonaligi haqida natijalar olingan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika instituti Buxoro bo‘linmasining “Matematik fizikaning teskari masalalari” mavzusidagi kalendar rejasi, Rossiya Fanlar akademiyasi

[2] В.Г. Романов, К задаче определения правой части гиперболических систем, Диф. уравнения, 1977, 13:3, с. 509-515.

[3] С.П. Белинский, В.Г. Романов, К задаче определения коэффициентов t-гиперболической системы, Матем. заметки, 1980, 28:4, с. 525-532.

Vladikavkaz ilmiy markazi Janubiy matematika institutining №075-02-2022-896 sonli loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ikki va uch o‘lchamli integro-differensial qovushqoq-elastiklik tenglamalar sistemasidan integral hadlar yadrolarini aniqlash usullarini qurish va bu teskari masala yechimining yagonaligi, mavjudligini isbotlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

ikki o‘lchamli qovushqoq-elastiklik sistemasi uchun teskari masala yechimining bir qiymatli yechiluvchanligini isbotlash;

vertikal qatlamli muhitda uch o‘lchamli qovushqoq-elastiklik tenglamalar sistemasi uchun boshlang‘ich-chegaraviy masala yechimining mavjudligi va yagonaligini ko‘rsatish;

izotrop muhitda qovushqoq-elastiklik tenglamalar sistemasi uchun xotirani aniqlashning teskari masalasini tadqiq qilish;

anizotrop muhitda tetragonal ko‘rinishli elastiklik moduliga ega qovushqoq-elastiklik tenglamalar sistemasi uchun yadroni topish teskari masalalasi yechimi global mavjudligi va yagonaligini o‘rganish.

Tadqiqotning obyekti birinchi tartibli giperbolik integro-differensial tenglamalar sistemasi uchun bir o‘lchamli teskari masalalardan iborat.

Tadqiqotning predmeti ikki va uch o‘lchamli qovushqoq-elastiklik tenglamalar sistemasi uchun teskari masalalardan iborat.

Tadqiqotning usullari. Ilmiy tadqiqot ishida funksional analiz, xususiy hosilali differensial tenglamalar, integral tenglamalar nazariyasi usullaridan foydalanilgan. Teskari masalalarning bir qiymatli yechiluvchanligini ko‘rsatish uchun masalalar Volterra tipidagi ikkinchi tur chiziqli bo‘lmagan integral tenglamalar sistemasiga olib kelinib, ularga siqiluvchan akslantirishlar prinsipi qo‘llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ikki o‘lchamli qovushqoq-elastiklik tenglamalar sistemasi uchun teskari masala yechimining mavjudligi va yagonaligi isbotlangan;

vertikal qatlamli muhitda uch o‘lchamli qovushqoq-elastiklik tenglamalar sistemasi uchun boshlang‘ich-chegaraviy masala yechimining mavjudligi va yagonaligi ko‘rsatilgan;

izotrop muhitda qovushqoq-elastiklik tenglamalar sistemasi uchun xotirani aniqlash teskari masalasi bir qiymatli yechilishi isbotlangan;

anizotrop muhitda tetragonal ko‘rinishli elastiklik moduliga ega qovushqoq-elastiklik tenglamalar sistemasi uchun yadroni topish teskari masalalasi yechimining global mavjudligi va yagonaligi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari. Tadqiqot natijalaridan seysmologiyada, neft va gaz konlarini qidirishda, hamda yuqori bosqich bakalavriat va magistratura talabalari uchun matematik fizika fanidan maxsus kurslarni o‘qishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Natijalar differensial tenglamalar nazariyasi, teskari masalalar nazariyasi, matematik va funksional analiz usullarini qo‘llash orqali olingan. Olingan natijalar matematik jihatdan qat’iy isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati matematik fizikaning qovushqoq-elastiklik integro-differensial tenglamalar sistemasidan bir o‘lchamli yadrolarni aniqlash usullari qurilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati qovushqoq-elastik xotirali muhitlarda to‘lqin tarqalish jarayonlarini tekshirishda tatbiq etilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Birinchi tartibli xotirali giperbolik tenglamalar sistemasi uchun teskari masalalarga oid olingan ilmiy natijalar asosida:

qovushqoq-elastiklik integro-differensial tenglamalar sistemasi uchun yadroni aniqlash usullaridan 122041100096-4 raqamli “Sotsiologiyada, geofizikada va muhandislik fanlarida matematik modellashtirish” mavzusidagi xorijiy fundamental loyihada vertikal qatlamli izotrop muhitlardagi qovushqoq-elastiklik tenglamalar sistemasidan o‘rama ko‘rinishidagi yadroni aniqlash teskari masalalarida foydalanilgan (Rossiya Fanlar akademiyasining Vladikavkaz ilmiy markazi Federal davlat ilmiy muassasasi Federal ilmiy markazi filali Janubiy matematika institutining, 2023 yil 13 oktabrdagi 81-sonli ma’lumotnomasi, Rossiya Federatsiyasi). Ilmiy natijaning qo‘llanilganligi vertikal qatlamli izotrop muhitlardagi qovushqoq-elastiklik tenglamalar sistemasidan o‘rama ko‘rinishidagi yadroni aniqlash va uning global mavjudlik va yagonaligini isbotlash imkoni bergan;

izotrop muhitda qovushqoq-elastiklik tenglamalar sistemasi uchun ko‘chish vektorini va xotira funksiyasini aniqlash usullaridan AAAA-A19-119072290002-9 raqamli “Kamchatkadagi tabiiy ofatlar - zilzilalar va vulqon otilishi” mavzusidagi xorijiy loyihada ikki va uch o‘lchamli qovushqoq-elastiklik tenglamalar sistemasidan yadro matritsasini aniqlashda foydalanilgan (Vitus Bering nomidagi Kamchatka davlat universitetining 2023 yil 13 noyabrdagi 54-12-sonli ma’lumotnomasi, Rossiya federatsiyasi). Ilmiy natijaning qo‘llanilishi yechim mavjudligi va yagonaligini isbotlash imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqotning asosiy natijalari 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 13 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, jumladan, 4 tasi xorijiy va 4 tasi respublika jurnallarida nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 95 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyligi asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor

yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, muammoning o‘rganilganlik darajasi, mavzu bo‘yicha dunyo miqyosidagi ilmiy-tadqiqotlar sharhi keltirilgan, tadqiqot maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Ikki o‘lchamli qovushqoq-elastiklik tenglamalar sistemasidan yadroni aniqlash”** deb nomlangan birinchi bobning birinchi paragrafida dissertatsiyada qo‘llaniladigan asosiy tushuncha va ta’riflar keltirilgan. Shuningdek, ushbu ilmiy tadqiqot mavzusi doirasida tadqiq etilgan ilmiy izlanishlar va olingan natijalar bayon qilingan. Ikkinchi paragrafda ikki o‘lchamli qovushqoq-elastiklik tenglamalar sistemasi uchun boshlang‘ich-chegaraviy masala o‘rganilgan.

Faraz qilaylik, $\overline{x} = (x_1, x_2) \in \mathbb{R}^2$ bo‘lsin. x_j, $j = 1{,}2$ o‘qiga normal parallel bo‘lgan maydonga ta’sir qiluvchi kuchlanishning x_i, $i = 1{,}2$ o‘qiga proyeksiyasini σ_{ij}, $i, j = 1{,}2$ bilan va zarracha siljish vektorining x_i o‘qiga proyeksiyasini $\bar{u}_i$, $i = 1{,}2$ bilan belgilaylik. Qovushqoq-elastik muhitlar uchun Guk qonuni quyidagi ko‘rinishda ifodalanadi[4]:

$$\sigma_{ij}(\overline{x}, t) = \mu\left(\frac{\partial \overline{u}_i}{\partial x_j} + \frac{\partial \overline{u}_j}{\partial x_i}\right) + \delta_{ij}\lambda \mathrm{div}\overline{u} +$$

$$+ \int_0^t K_{ij}(t-\tau)\left[\mu\left(\frac{\partial \overline{u}_i}{\partial x_j} + \frac{\partial \overline{u}_j}{\partial x_i}\right) + \delta_{ij}\lambda \mathrm{div}\overline{u}\right](\overline{x}, t-\tau)d\tau, \qquad i, j = 1{,}2, \quad (3)$$

bunda $\bar{u}(\bar{x}) = (\bar{u}_1, \bar{u}_2)$ – siljish vektori, $\mu = \mu(x_2) > 0$, $\lambda = \lambda(x_2) > 0$ – Lame koeffitsiyentlari, δ_{ij} –Kroneker simvoli, $K_{ij}(t)$ –muhitning yopishqoqligi uchun javob beradigan funksiyalar va ular uchun $K_{ij} = K_{ji}$, $i, j = 1{,}2$ munosabatlar o‘rinli bo‘lsin.

Tashqi kuchlar bo‘lmaganda qovushqoq-elastik muhitdagi zarralarning harakat tenglamasi quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi:

$$\rho \frac{\partial^2 \overline{u}_i}{\partial t^2} = \sum_{j=1}^{2} \frac{\partial \sigma_{ij}}{\partial x_j}, \qquad i = 1{,}2, \qquad (4)$$

bunda $\rho = \rho(x_2) > 0$ –muhitning zichligi.

(3) tenglamalar sistemasini $\mu\left(\frac{\partial \overline{u}_i}{\partial x_j} + \frac{\partial \overline{u}_j}{\partial x_i}\right) + \delta_{ij}\lambda \mathrm{div}\overline{u}$ funksiyaga nisbatan rezolventa usuli yordamidan yechib, quyidagi Volterra ikkinchi tur integral tenglamasiga ega bo‘lamiz:

$$\sigma_{ij}(\overline{x}, t) = \mu\left(\frac{\partial \overline{u}_i}{\partial x_j} + \frac{\partial \overline{u}_j}{\partial x_i}\right) + \delta_{ij}\lambda \mathrm{div}\overline{u} + \int_0^t r_{ij}(t-\tau)\sigma_{ij}(\overline{x}, \tau)d\tau, \quad i, j = 1{,}2. \quad (5)$$

[4]Л.А. Галин, Контактные задачи теории упругости и вязкоупругости, М. : Наука, 1980. 242 с.

(5) tenglamalar sistemasidagi $r_{ij}(t)$ funksiyalar $K_{ij}(t)$ yadrolarning rezolventasi bo‘lib, ular

$$r_{ij}(t) = -K_{ij}(t) - \int_0^t K_{ij}(t-\tau) r_{ij}(\tau) d\tau, \quad i,j = 1,2 \tag{6}$$

integral tenglamalar yordamida aniqlanadi. $K_{ij} = K_{ji}$ munosabatdan $r_{ij} = r_{ji}$ bo‘lishi kelib chiqadi.

$u_i = \frac{\partial}{\partial t}\overline{u}_i, (i = 1,2)$ belgilash yordamida (5) tenglamalar sistemasini t o‘zgaruvchi bo‘yicha differensiallab,

$$\frac{\partial}{\partial t}\sigma_{ij}(\overline{x}, t) = \mu\left(\frac{\partial u_i}{\partial x_j} + \frac{\partial u_j}{\partial x_i}\right) + \delta_{ij}\lambda \mathrm{div} u +$$

$$+ r_{ij}(0)\sigma_{ij}(\overline{x}, t) + \int_0^t r'_{ij}(t-\tau)\sigma_{ij}(\overline{x}, \tau) d\tau, \quad i,j = 1,2, \tag{7}$$

σ_{ij} ga nisbatan integral tenglamalarni olamiz, bunda $r_{ij}(0)$ larni berilgan deb faraz qilamiz.

Qulaylik uchun $x_1 := x,\ x_2 := y$ ko‘rinishida belgilash olaylik. (4) va (7) tenglamalardan foydalanib, u_i va σ_{ij} funksiyalarga nisbatan quyidagi birinchi tartibli giperbolik integro-differensial tenglamalar sistemasiga ega bo‘lamiz:

$$A\frac{\partial \boldsymbol{U}}{\partial t} - B\frac{\partial \boldsymbol{U}}{\partial x} - C\frac{\partial \boldsymbol{U}}{\partial y} - D\boldsymbol{U} = \int_0^t R(t-\tau)\boldsymbol{U}(x,y,\tau) d\tau. \tag{8}$$

Bunda $\boldsymbol{U} = (u_1, u_2, \sigma_{11}, \sigma_{22}, \sigma_{12})^*$, $*$ −transponirlash belgisi,

$$A = \mathrm{diag}(\rho, \rho, 1,1,1),$$

$$B = \begin{pmatrix} 0 & 0 & 1 & 0 & 0 \\ 0 & 0 & 0 & 0 & 1 \\ \lambda+2\mu & 0 & 0 & 0 & 0 \\ \lambda & 0 & 0 & 0 & 0 \\ 0 & \mu & 0 & 0 & 0 \end{pmatrix}, C = \begin{pmatrix} 0 & 0 & 0 & 0 & 1 \\ 0 & 0 & 0 & 1 & 0 \\ 0 & \lambda & 0 & 0 & 0 \\ 0 & \lambda+2\mu & 0 & 0 & 0 \\ \mu & 0 & 0 & 0 & 0 \end{pmatrix},$$

$$D = \mathrm{diag}(0,0, r_{11}(0), r_{22}(0), r_{12}(0)), \quad R(t) = \mathrm{diag}(0,0, r'_{11}, r'_{22}, r'_{12})$$

tengliklar bilan aniqlanadi. (8) sistemani y va t o‘zgaruvchiga nisbatan normal tenglamalar sistemasiga keltirish mumkin. Buning uchun sistemaning ikkala tomoniga chapdan A^{-1} matritsani ko‘paytiramiz va

$$|A^{-1}C - \nu I| = 0, \tag{9}$$

xarakteristik tenglamani tuzib olamiz. (9) tenglamanining yechimi quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi:

$$\nu_1 = -\nu_2 = \sqrt{\frac{\mu}{\rho}}, \qquad \nu_3 = -\nu_4 = \sqrt{\frac{\lambda+2\mu}{\rho}}, \qquad \nu_5 = 0. \tag{10}$$

Endi

$$\Upsilon^{-1}A^{-1}C\Upsilon = \Lambda \tag{11}$$

tenglik bilan aniqlanadigan $\Upsilon(y)$ matritsani topamiz[5]. (11) tenglikda keltirilgan Λ dioganal matritsa va uning diagonalida $A^{-1}C$ matritsaning xos sonlari joylashadi. (11) formuladan foydalanib,

$$A^{-1}C\Upsilon = \Upsilon\Lambda$$

tenglikka ega bo‘lamiz. Yuqoridagi tenglikdan ko‘rishimiz mumkinki, Υ matritsaning i-ustuni $A^{-1}C\Upsilon$ matritsaning ν_i xos qiymatiga mos keluvchi xos vektor bo‘ladi. Matematik hisoblashlar natijasida Υ (yagona emas) matritsani ushbu

$$\Upsilon(y) = \begin{pmatrix} 1 & 1 & 0 & 0 & 0 \\ 0 & 0 & -\dfrac{1}{\sqrt{\rho(\lambda+2\mu)}} & \dfrac{1}{\sqrt{\rho(\lambda+2\mu)}} & 0 \\ 0 & 0 & \dfrac{\lambda}{\lambda+2\mu} & \dfrac{\lambda}{\lambda+2\mu} & 1 \\ 0 & 0 & 1 & 1 & 0 \\ -\sqrt{\mu\rho} & \sqrt{\mu\rho} & 0 & 0 & 0 \end{pmatrix}$$

ko‘rinishda aniqlaymiz. $\boldsymbol{U} = \Upsilon\boldsymbol{\vartheta}$ belgilash yordamida yangi funksiya kiritaylik. (8) tenglamani yangi funksiyaga nisbatan yozib, hosil bo‘lgan tenglamani $\Upsilon^{-1}A^{-1}$ga chapdan ko‘paytiramiz. Natijada $\boldsymbol{\vartheta} = (\vartheta_1, \vartheta_2, \dots, \vartheta_5)^*$ vektor funksiyaga nisbatan

$$\frac{\partial\boldsymbol{\vartheta}}{\partial t} + \Lambda\frac{\partial\boldsymbol{\vartheta}}{\partial y} + B_1\frac{\partial\boldsymbol{\vartheta}}{\partial x} + C_1\boldsymbol{\vartheta} = \int_0^t R_1(y, t-\tau)\boldsymbol{\vartheta}(x, y, \tau)d\tau \qquad (12)$$

tenglamalar sistemasini olamiz, bu yerda

$$B_1 = \Upsilon^{-1}A^{-1}B\Upsilon = \left(b_{ij}\right)_{5\times5},\quad C_1(y,t) = \Upsilon^{-1}A^{-1}C\frac{\partial\Upsilon}{\partial y} + \Upsilon^{-1}D\Upsilon = \left(c_{ij}\right)_{5\times5},$$
$$R_1(y,t) = \Upsilon^{-1}A^{-1}R\Upsilon = \left(\tilde{r}_{ij}\right)_{5\times5}.$$

(12) sistemani quyidagi $\Gamma = \Gamma_0 \cup \Gamma_1 \cup \Gamma_2$, $\Gamma_0 = \{(x,y,t): x \in \mathbb{R}, 0 \le y \le H, t = 0\}$,

$\Gamma_1 = \{(x,y,t): x \in \mathbb{R}, y = 0, t > 0\}$, $\Gamma_2 = \{(x,y,t): x \in \mathbb{R}, y = H, t > 0\}$ chegarali $\Omega = \{(x,y,t): x \in \mathbb{R}, 0 < y < H, t > 0\}$, $H = const$

sohada qaraylik.

$\boldsymbol{\vartheta}(x,y,t)$ vektor funksiya uchun sohaning chegaralarida quyidagi boshlang‘ich va chegaraviy shartlarni beramiz:

$$\vartheta_i|_{\Gamma_0} = \varphi_i(x,y), \qquad i = \overline{1,5}, \qquad (13)$$

$$\vartheta_i|_{\Gamma_1} = \psi_i(x,t), \qquad i = 1,3, \quad \vartheta_i|_{\Gamma_2} = \psi_i(x,t), \qquad i = 2,4. \qquad (14)$$

(12)-(14) masala korrekt qo‘yilgan [6]. Dissertatsiya ishining birinchi bobida $\varphi_i(\cdot,y), \psi_j(\cdot,t) \in C_0(\mathbb{R})$, $i = \overline{1,5}, j = \overline{1,4}$ larni talab qilamiz. (12)-(14) masalada berilganlar x o‘zgaruvchi bo‘yicha finit bo‘lganligi sababli, bu masalaning yechimi

[5] Ф.Р. Гантмахер, Теория матриц, Наука, Гл. ред. физ.-мат. лит., М, 1988.

[6] В. Г. Романов, Обратные задачи математической физики. М.: Наука. 1984. с. 264.

ham finit bo‘ladi. Demak, biz x o‘zgaruvchi bo‘yicha Furye almashtirishini qo‘llay olamiz. Natijada (12)-(14) masala yechimining Furye almashtirishi yordamida teskari masalani tadqiq qilamiz.

Teskari masalada (12)-(14) masala yechimi haqida

$$\tilde{\vartheta}_1|_{\tilde{\Gamma}_2,\xi=0} = \tilde{h}_1(t), \quad \tilde{\vartheta}_3|_{\tilde{\Gamma}_2,\xi=0} = \tilde{h}_3(t), \quad \tilde{\vartheta}_5|_{\tilde{\Gamma}_1,\xi=0} = \tilde{h}_5(t), \tag{15}$$

qo‘shimcha shartlardan foydalanib, R_1 matritsaga kiruvchi $r_{ij}(t)$ funksiyalarni aniqlash talab etiladi. Bu yerda $\widetilde{\boldsymbol{\vartheta}}(\xi,y,t)$—$\boldsymbol{\vartheta}$ funksiya Furye almashtirishining ξ parametri bo‘yicha tasviri $\left(\widetilde{\boldsymbol{\vartheta}}(\xi,y,t) = \int_{\mathbb{R}} e^{i\xi x}\boldsymbol{\vartheta}(x,y,t)dx\right)$, $\tilde{h}_i(t) -$ berilgan yetarlicha silliq funksiya va $\tilde{\Gamma}$—Γ chegaraning (y,t) tekislikdagi proyeksiyasi. $\boldsymbol{V}(y,t) := \widetilde{\boldsymbol{\vartheta}}(\xi,y,t)|_{\xi=0}$ ko‘rinishida belgilash olib, $\boldsymbol{V}(y,t) = (\mathrm{V}_1,\dots,\mathrm{V}_5)^*$ vektor funksiyaga nisbatan

$$\frac{\partial \boldsymbol{V}}{\partial t} + \Lambda\frac{\partial \boldsymbol{V}}{\partial y} + C_1\boldsymbol{V} = \int_0^t R_1(y,\tau)\boldsymbol{V}(y,t-\tau)d\tau, \tag{16}$$

$$V_i|_{\tilde{\Gamma}_0} = \tilde{\varphi}_i(y), \qquad i = \overline{1,5}, \tag{17}$$

$$V_i|_{\tilde{\Gamma}_1} = \tilde{\psi}_i(t), \qquad i = 1,3, \quad V_i|_{\tilde{\Gamma}_2} = \tilde{\psi}_i(t), \qquad i = 2,4, \tag{18}$$

masalaga ega bo‘lamiz. Bu tengliklarda $\tilde{\varphi}_i(y)$, $i = \overline{1,5}$, $\tilde{\psi}_i(t)$, $i = \overline{1,4}$ lar mos ravishda $\varphi_i(x,y)$ va $\psi_i(x,t)$ funksiyalar Furye tasvirlarining $\xi = 0$ dagi qiymati.

Faraz qilaylik, $\tilde{\varphi}_i(y)$ va $\tilde{\psi}_i(t)$ funksiyalar Ω sohaning burchak nuqtalarida

$$\tilde{\varphi}_i(0) = \tilde{\psi}_i(0), \quad i = 1,3, \qquad \tilde{\varphi}_i(0) = \tilde{\psi}_i(H), \quad i = 2,4 \tag{19}$$

shartlarni qanoatlantirsin. (16)-(18) masalaning yechimi haqida quyidagi lemma o‘rinli:

1-lemma. *Faraz qilaylik,* $\{\rho(y),\mu(y),\lambda(y)\} \in C^1[0,H]$, $\tilde{\varphi}_i(y) \in C[0,H]$, $i = \overline{1,5}$, $\tilde{\psi}_i(t) \in C[0,T]$, $i = \overline{1,4}$, $r_{ij}(t) \in C^1[0,T]$, $i,j = 1,2$ *bo‘lib, (19) kelishuvchanlik sharti o‘rinli bo‘lsin. U holda (16)-(18) masalaning* $C^1(\Omega_{HT}) \cap C(\overline{\Omega}_{HT})$ *funksional sinfga tegishli yagona yechimi mavjud, bu yerda* $\Omega_{HT} = \{(y,t): 0 < y < H,\ 0 < t < T\}$.

$\boldsymbol{\omega}(y,t) = \frac{\partial \boldsymbol{V}}{\partial t}(y,t)$ tenglik yordamida yangi vektor funksiyasini kiritib, (16) tenglama va (18) chegaraviy shartlarini t o‘zgaruvchiga nisbatan differensiallaymiz. (16) tenglamalar sistemasi va (17) boshlang‘ich shartlar yordamida $\boldsymbol{\omega}(y,t)$ funksiyaning $t = 0$ dagi qiymatini olamiz. Natijada $\boldsymbol{\omega}(y,t)$ vektor funksiyaga nisbatan ushbu masalaga ega bo‘lamiz:

$$\frac{\partial \omega_i}{\partial t} + \nu_i\frac{\partial \omega_i}{\partial y} + \sum_{j=1}^{4} c_{ij}(y)\omega_j(y,t) = \int_0^t \sum_{j=1}^{4} \tilde{r}_{ij}(y,\tau)\omega_j(y,t-\tau)d\tau + \sum_{j=1}^{4} \tilde{r}_{ij}(y,t)\tilde{\varphi}_j(y), \quad i = \overline{1,5}, \tag{20}$$

$$\omega_i(y,t)|_{t=0} = -\nu_i\frac{d\tilde{\varphi}_i(y)}{dy} - \sum_{j=1}^{5} c_{ij}(y)\tilde{\varphi}_i(y) := \Phi_i(y), \quad i = \overline{1,5}, \tag{21}$$

$$\omega_i(y,t)|_{y=0} = \frac{d\tilde{\psi}_i(t)}{dt}, i = 1,3, \quad \omega_i|_{y=H} = \frac{d\tilde{\psi}_i(t)}{dt}, i = 2,4. \qquad (22)$$

(15) shartdan foydalanib, ω_i funksiyalar uchun

$$\omega_1|_{y=H} = \frac{d\tilde{h}_1(t)}{dt}, \quad \omega_3|_{y=H} = \frac{d\tilde{h}_3(t)}{dt}, \qquad \omega_5|_{y=0} = \frac{d\tilde{h}_5(t)}{dt} \qquad (23)$$

qo‘shimcha shart olinadi. Quyidagi kelishuvchanlik shartlari bajarilishini talab qilamiz:

$$-\nu_i \frac{d\tilde{\varphi}_i(y)}{dy}\bigg|_{y=0} - \sum_{j=1}^{5} c_{ij}(0)\tilde{\varphi}_i(0) = \frac{d\tilde{\psi}_i(t)}{dt}\bigg|_{t=0}, \quad i = 1,3, \qquad (24)$$

$$-\nu_i \frac{d\tilde{\varphi}_i(y)}{dy}\bigg|_{y=H} - \sum_{j=1}^{5} c_{ij}(H)\tilde{\varphi}_i(H) = \frac{d\tilde{\psi}_i(t)}{dt}\bigg|_{t=0}, \quad i = 2,4. \qquad (25)$$

1-teorema. *Faraz qilaylik, 1-lemmadagi shartlar bajarilsin, bundan tashqari berilganlar* $\tilde{\varphi}_i(y) \in C^1[0,H], \quad i = \overline{1,5}, \quad \tilde{\psi}_i(t) \in C^1[0,T], \quad i = \overline{1,4}$ *munosabatlarni qanoatlantirsin va (24), (25) kelishuvchanlik shartlari bajarilsin. U holda (20)-(22) masalaning* $C^1(\Omega_{HT}) \cap C(\bar{\Omega}_{HT})$ *funksional sinfga qarashli yagona yechimi mavjud.*

Dissertatsiyaning birinchi bobi uchinchi paragrafida xotirali birinchi tartibli giperbolik tenglamalar sistemasidan o‘rama ko‘rinishidagi yadroni aniqlash teskari masalasi tadqiq qilingan.

Faraz qilaylik, ushbu munosabatlar o‘rinli bo‘lsin:

$$\tilde{\varphi}_1(0) \neq \tilde{\varphi}_2(0), \quad \tilde{\varphi}_3(0) \neq -\tilde{\varphi}_4(0),$$
$$\lambda[\tilde{\varphi}_3(0) + \tilde{\varphi}_4(0) + \tilde{\varphi}_5(0)] + 2\mu(0)\tilde{\varphi}_5(0) \neq 0. \qquad (26)$$

Bundan tashqari quyidagi kelishuvchanlik shartlarini bajarilishini talab qilaylik:

$$\frac{d}{dt}\tilde{h}_i(t)\bigg|_{t=0} = -\nu_i \frac{d}{dy}\tilde{\varphi}_i(y)\bigg|_{y=0} - \sum_{j=1}^{5} c_{ij}(0)\tilde{\varphi}_i(0), \quad i = 1,3, \qquad (27)$$

$$\frac{d}{dt}\tilde{h}_5(t)\bigg|_{t=0} = -\sum_{j=1}^{5} c_{5j}(0)\tilde{\varphi}_j(0). \qquad (28)$$

Quyidagi teorema o‘rinli:

2-teorema. *Faraz qilaylik, 1-teoremadagi shartlar o‘rinli bo‘lsin. Bundan tashqari* $\tilde{\varphi}_i(y) \in C^2[0,H]$, $i = \overline{1,5}$, $\tilde{\psi}_i(t) \in C^2[0,\mu_0]$, $\tilde{h}_i(t) \in C^2[0,\mu_0]$, $i = \overline{1,3}$ *bo‘lib, (26) munosabatlar va (27), (28) kelishuvchanlik shartlari bajarilsin. U holda ixtiyoriy tayinlangan* $H > 0$ *soni uchun (20)-(23) masalaning* $[0,\mu_0]$ *kesmada aniqlangan* $C^1[0,\mu_0]$ *sinfga tegishli yagona yechimi mavjud. Bu yerda* $\mu_i(y) = \int_0^y \frac{1}{\nu_i(s)} ds$, $\mu_0 = \max\{\mu_1(H), \mu_3(H)\}$.

$r'_{11}(t), r'_{22}(t), r'_{12}(t)$ funksiyalar orqali $r_{11}(t), r_{22}(t), r_{12}(t)$ lar

$$r_{ij}(t) = r_{ij}(0) + \int_0^t r'_{ij}(\tau)d\tau, \quad i,j = 1,2,$$

formula orqali aniqlanadi. (6) integral tenglamani yechib, $K_{11}(t)$, $K_{22}(t)$, $K_{12}(t)$ funksiyalar topiladi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "**Vertikal qatlamli muhitdagi uch o'lchamli qovushqoq-elastiklik sistemalari uchun teskari masala**" deb nomlangan bo'lib, unda integral hadning bir o'lchamli yadrosini aniqlash masalasi o'rganilgan. Bobning birinchi paragrafida boshlang'ich-chegaraviy va teskari masalalarning qo'yilishi hamda boshlang'ich-chegaraviy masala yechimining mavjudlik va yagonalik teoremalari keltirilgan. Ikkinchi paragrafda teskari masalaga ekvivalent integral tenglamalarning olinishi keltirilgan. Uchinchi paragrafda teskari masala yechimining mavjudlik va yagonalik teoremasi hamda uning isboti keltirilgan.

Tashqi kuchlarning ta'siri bo'lmaganda fazoning tebranishlarini quyidagi tenglamalar sistemasi orqali tasvirlash mumkin:

$$\begin{cases} \rho \dfrac{\partial u_i}{\partial t} = \sum\limits_{j=1}^{3} \dfrac{\partial \sigma_{ij}}{\partial x_j}, \quad i = 1,2,3, \\ \dfrac{\partial \sigma}{\partial t} = \mathrm{K}\varepsilon + Q\sigma + \int\limits_0^t P(t-\tau)\,\sigma(\tau)\,d\tau, \end{cases} \quad (x_1, x_2) \in \mathbb{R}^2, x_3 \in [0, H], t > 0. \quad (29)$$

Bunda $u = (u_1, u_2, u_3)^* -$ tezlik vektori, $\sigma\left(\sigma_{ij} = \sigma_{ji}, i, j = 1,2,3\right) -$ kuchlanish tenzori va $= (\sigma_{11},\ \sigma_{12},\ \sigma_{13}, \sigma_{22},\ \sigma_{23}, \sigma_{33})^*$, $\varepsilon = (\varepsilon_1, \varepsilon_2, \varepsilon_3, \varepsilon_4, \varepsilon_5, \varepsilon_6)^*$:

$$\varepsilon = \begin{cases} \varepsilon_1 = \dfrac{\partial u_1}{\partial x_1}, \quad \varepsilon_4 = \dfrac{\partial u_2}{\partial x_2}, \quad \varepsilon_6 = \dfrac{\partial u_3}{\partial x_3}, \\ \varepsilon_2 = \dfrac{1}{2}\left(\dfrac{\partial u_1}{\partial x_2} + \dfrac{\partial u_2}{\partial x_1}\right), \varepsilon_3 = \dfrac{1}{2}\left(\dfrac{\partial u_1}{\partial x_3} + \dfrac{\partial u_3}{\partial x_1}\right), \varepsilon_5 = \dfrac{1}{2}\left(\dfrac{\partial u_2}{\partial x_3} + \dfrac{\partial u_3}{\partial x_2}\right), \end{cases}$$

$$K = \begin{pmatrix} K_{11} & \mathbf{O}_{3\times3} \\ \mathbf{O}_{3\times3} & K_{22} \end{pmatrix}, \quad K_{11} = (k_{ij}) = \begin{cases} \lambda + 2\mu, & i = j, \\ \lambda, & i \neq j, \end{cases} \quad K_{22} = \mathrm{diag}(\mu, \mu, \mu),$$

$$Q = \mathrm{diag}\,(r_{11}(0),0,0, r_{22}(0),0, r_{33}(0)), P = \mathrm{diag}\,(r'_{11}, 0,0, r'_{22}, 0, r'_{33}),$$

$\lambda(x_3) > 0, \mu(x_3) > 0 -$ Lame koeffitsiyentlari, $\rho(x_3) > 0 -$ muhitning zichligi, $r_{11}(t), r_{22}(t), r_{33}(t) -$muhitning yopishqoqligi uchun javob beradigan funksiyalar.

(29) giperbolik integro-differensial tenglamalar sistemasini kanonik ko'rinishga keltiramiz:

$$\frac{\partial \boldsymbol{\vartheta}}{\partial t} + \Lambda \frac{\partial \boldsymbol{\vartheta}}{\partial x_3} + B_1 \frac{\partial \boldsymbol{\vartheta}}{\partial x_1} + C_1 \frac{\partial \boldsymbol{\vartheta}}{\partial x_2} + F_1 \boldsymbol{\vartheta} = \int\limits_0^t R_1(t-\tau, x_3)\,\boldsymbol{\vartheta}(x_1, x_2, x_3, \tau) d\tau. \quad (30)$$

Bunda $\boldsymbol{\vartheta} = (\vartheta_1, \vartheta_2, \ldots, \vartheta_9)$,

$$\Lambda = \mathrm{diag}(\nu_i) = \mathrm{diag}\left(-\sqrt{\frac{\lambda+2\mu}{\rho}}, -\sqrt{\frac{\mu}{\rho}}, -\sqrt{\frac{\mu}{\rho}}, 0,0,0, \sqrt{\frac{\mu}{\rho}}, \sqrt{\frac{\mu}{\rho}}, \sqrt{\frac{\lambda+2\mu}{\rho}}\right),$$

$$B_1(x_3) = \Upsilon^{-1}A^{-1}B\Upsilon = \left(b_{\mathrm{ij}}\right)_{9\times 9},$$
$$C_1(x_3) = \Upsilon^{-1}A^{-1}C\Upsilon = \left(c_{\mathrm{ij}}\right)_{9\times 9},$$
$$F_1(x_3) = \Upsilon^{-1}A^{-1}D\frac{\partial \Upsilon}{\partial x_3} + \Upsilon^{-1}A^{-1}F\Upsilon = \left(p_{\mathrm{ij}}\right)_{9\times 9},$$
$$R_1(x_3,t) = \Upsilon^{-1}A^{-1}R\Upsilon = \left(\tilde{r}_{ij}\right)_{9\times 9},$$

$$\Upsilon(x_3) = \begin{pmatrix} 0 & 0 & 1 & 0 & 0 & 0 & 0 & 1 & 0 \\ 0 & 1 & 0 & 0 & 0 & 0 & 1 & 0 & 0 \\ 1 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 1 \\ \frac{\lambda}{\nu_9} & 0 & 0 & 1 & 0 & 1 & 0 & 0 & -\frac{\lambda}{\nu_9} \\ 0 & 0 & 0 & 0 & 1 & 0 & 0 & 0 & 0 \\ 0 & 0 & \rho\nu_8 & 0 & 0 & 0 & 0 & -\rho\nu_8 & 0 \\ \frac{\lambda}{\nu_9} & 0 & 0 & 0 & 0 & 1 & 0 & 0 & -\frac{\lambda}{\nu_9} \\ 0 & \rho\nu_8 & 0 & 0 & 0 & 0 & -\rho\nu_8 & 0 & 0 \\ \rho\nu_9 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & -\rho\nu_9 \end{pmatrix}.$$

$\boldsymbol{\vartheta}(x_1, x_2, x_3, t)$ vektor funksiya (30) tenglamalar sistemasini $\Omega = \{(x_1, x_2, x_3, t)\colon (x_1, x_2) \in \mathbb{R}^2, \quad x_3 \in (0, H), \quad t > 0\}, \quad H = \text{const}$ sohada sohada qanoatlantirsin. Bundan tashqari sohaning chegarasida noma'lum funksiya quyidagi boshlang'ich

$$\vartheta_i|_{t=0} = \varphi_i(x_1, x_2, x_3), \qquad i = \overline{1,9} \tag{31}$$

va chegaraviy

$$\vartheta_i\rfloor_{x_3=H} = g_i(x_1, x_2, t), i = 1,2,3, \ \ \vartheta_i|_{x_3=0} = g_i(x_1, x_2, t), \ \ i = 7,8,9 \tag{32}$$

qiymatlarni qabul qilsin. Bu yerda $\varphi_i(x_1, x_2, x_3), g_i(x_1, x_2, t)$ – berilgan yetarlicha silliq funksiyalar.

Teskari masalada (30)-(32) masala yechimi haqida

$$\vartheta_i\rfloor_{x_3=0} = h_i(x_1, x_2, t), i = 1,4,6, \tag{33}$$

shartlardan foydalanib, R_1 matritsaga kiruvchi $r_{11}(t), r_{22}(t), r_{33}(t)$ elementlarni topish talab etiladi. Bu yerda $h_i(x_1, x_2, t), i = 1,4,6$ lar oldindan ma'lum, yetarlicha silliq funksiyalar.

Faraz qilaylik, (31), (32) shartlarning o'ng tomonida berilgan $\varphi_i(x_1, x_2, x_3)$, $g_i(x_1, x_2, t)$ va $h_i(x_1, x_2, t)$ vektor funksiyalar har bir fiksirlangan x_3, t larda x_1, x_2 o'zgaruvchilar bo'yicha finit bo'lsin. U holda (30) tenglamalar sistemasi giperbolik tipga tegishli ekanligidan (30)-(32) masalaning biz qidirayotgan yechimining ham finitligi kelib chiqadi.

Qulaylik uchun $x_3 = z$ belgilash olaylik. $\widetilde{\boldsymbol{\vartheta}}(\eta_1, \eta_2, z, t)$ orqali $\boldsymbol{\vartheta}(x_1, x_2, z, t)$ funksiyaning x_1 va x_2 o'zgaruvchilar bo'yicha Furye almashtirishini belgilaymiz:

$$\widetilde{\boldsymbol{\vartheta}}(\eta_1, \eta_2, z, t) = \int_{\mathbb{R}^2} \boldsymbol{\vartheta}(x_1, x_2, z, t) e^{i[\eta_1 x_1 + \eta_2 x_2]} dx_1 dx_2, \tag{34}$$

bu yerda η_1 va η_2 –Furye almashtirishining parametrlari. $\eta_1 = 0, \eta_2 = 0$ da $\widetilde{\boldsymbol{\vartheta}}(\eta_1, \eta_2, z, t) = \widehat{\boldsymbol{\vartheta}}(z, t)$ belgilash olamiz. Natijada $\widehat{\boldsymbol{\vartheta}}$ funksiyaga nisbatan (30)-(33) masala quyidagi ko‘rinishni oladi:

$$\left(\frac{\partial}{\partial t} + \nu_j \frac{\partial}{\partial z}\right)\hat{\vartheta}_j(z,t) =$$

$$= \sum_{k=1}^{9} p_{jk}(z)\hat{\vartheta}_k(z,t) + \int_0^t \sum_{k=1}^{9} \hat{r}_{jk}(z,\tau)\hat{\vartheta}_k(z,t-\tau)\,d\tau,\ j = \overline{1,9}, \quad (35)$$

$$\hat{\vartheta}_i\big|_{t=0} = \hat{\varphi}_i(z), \qquad i = \overline{1,9}, \quad (36)$$

$$\hat{\vartheta}_i\big|_{z=H} = \hat{g}_i(t),\ \ i = 12{,}3, \qquad \hat{\vartheta}_i\big|_{z=0} = \hat{g}_i(t),\ \ i = 7{,}8{,}9, \quad (37)$$

$$\hat{\vartheta}_i\big|_{z=0} = \hat{h}_i(t), \quad i = 1{,}4{,}6. \quad (38)$$

$\boldsymbol{\omega}(z,t) = \frac{\partial \widehat{\boldsymbol{\vartheta}}}{\partial t}(z,t)$ belgilash yordamida yangi funksiya kiritib, (35)-(38) masaladan $\boldsymbol{\omega}(z,t) = (\omega_1, \dots, \omega_9)^*$ funksiyaga nisbatan quyidagi masalaga ega bo‘lamiz:

$$\left(\frac{\partial}{\partial t} + \nu_j \frac{\partial}{\partial z}\right)\omega_j(z,t) = \sum_{k=1}^{9} p_{jk}(z)\omega_k(z,t) + \sum_{k=1}^{9} \tilde{r}_{jk}(z,\tau)\hat{\varphi}_k(z) +$$

$$+ \int_0^t \sum_{k=1}^{9} \tilde{r}_{jk}(z,\tau)\omega_k(z,t-\tau)\,d\tau, \quad j = \overline{1,9}, \quad (39)$$

$$\omega_i|_{t=0} = -\nu_j \frac{d\hat{\varphi}_i(z)}{dz} + \sum_{j=1}^{9} p_{ij}(z)\hat{\varphi}_j(z) := \Phi_i(z), \quad i = \overline{1,9}, \quad (40)$$

$$\omega_i|_{z=H} = \frac{d}{dt}\hat{g}_i(t),\ \ i = 1{,}2{,}3, \qquad \omega_i|_{z=0} = \frac{d}{dt}\hat{g}_i(t),\ \ i = 7{,}8{,}9, \quad (41)$$

$$\omega_i|_{z=0} = \frac{d}{dt}\hat{h}_i(t), \quad i = 1{,}4{,}6. \quad (42)$$

Qaralayotgan masala yechimi uzluksizligi uchun quyidagi tengliklarni talab qilaylik:

